

OBUNA
INDEKSI:

882

ERKATOY

Bolaligim — poshsholigim!



№11(16). 2014 y.
noyabr

O'YINLAR

ERTAKLAR

ENGLISH

HILPIRAYVER BAYROG'IM!

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991 yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimgi mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixdan bog'liqligini anglatadi, hamda yurtimizning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqdagagi moviy rang - tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obu-havo ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'inining ranggi ham moviy rangda bo'lgan.

2. Bayroqdagagi oq rang – muqqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritkichi bilan uyg'unlashib ketadi.

3. Yashil rang – tabiatning yangilanishi ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar – bu har bir tirikjon qon tomiridagi urib turgan hayotiy kuch, vujudimizda jo'shib oqayotgan qudrat irmoqlaridir.

5. Yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda bu qo'lga kiritgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham ko'p asrlik an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasviri o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligini, uning komillikka, o'z tuprog'ida sadoqatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

BAXTIYORLIK QO'SHIG'I

O'zbekiston bayrog'in Hilpirashin qaranglar.
Ko'rgan ko'zni yashnatar
Tovlanib turfa ranglar.

Naqorat

Topilmaydi bunday Vatan,
Bizga mehri kunday Vatan.
Ertaklarda bo'lgan kabi -
Shu Vatandir shunday Vatan!

Biz shu Vatan qo'ynida
Ochilgan gul-g'unchamiz,
Tilimiz - dilimizda
Zo'r madhiya jaranglar!

Naqorat



KAKKU

Allegretto

Tolqin sh'eri,
J.Hamroyev musiqasi.

Me-ning se-vik - li qu-shim
tu-ta - man kaf - tim-da suv Sen-ga-dir sho'x qo' shi-g'im Kak - ku kak - ku kak - ku - jon kak - ku
Sen + ga - dir sho'x qo' - shi - g'im Kak - ku Kak - ku kak - ku - jon
kak - ku
dim.
kak - ku kak - ku kak - ku
dim.



Mening sevikli qushim
Tutaman kaftimda suv
Sengadir sho'x qo'shig'im
Kakku, kakkujon, kakku!

Baland, baland uchasan
Jajji qalbingda orzu
Fazolarni quchasan
Kakku, kakkujon, kakku!

Yelkamga qo'n mayliga
Ko'zlarining munchoq, ko'zgu
Boshla bog'lar sayliga
Kakku, kakkujon, kaku!

NON VA TILLA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, O‘ktam degan bir kambag‘al dehqon bor ekan. Bir parcha non topsam, deb erta-yu kech ishlar ekan, bo‘sh qolsa qani endi davlat topib olsam-u, boyib ketsam, deb hayol surar ekan.

Kunlardan bir kun O‘ktam, daraxt tagiga o‘tirib: “Olloh menga bir kuch bersa-yu, qo‘limni nimaga ursam, o‘sha narsa tillaga aylanib qolaversa, ana ushanda og‘ir mehnatdan qutulib, farovon hayot kechirgan bo‘lar edim”, deya hayol sura boshlabdi.

To‘satdan uning qulog‘iga:

— O‘ktam! Hozir sen tilagingga yetasan! Qo‘lingni biron narsaga tekkizgin, darhol tillaga aylanib qoladi,- degan ovoz eshitilibdi.

O‘ktam o‘z quloqlariga ishonmabdi. Shunday bo‘lsa ham, bir toshga qo‘l tekkizgan ekan, tosh tillaga aylanib qolibdi.

O‘ktam o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketibdi. “Endi yer sotib olaman, dang‘illama uy quraman, atrofini bog‘-rog‘... Chiroli ot va yaxshi kiyim-boshlar sotib olaman”, - deb o‘ylabdi.

U o‘rnidan turmoqchi bo‘lganida, qattiq charchagani va qorni ochiqqanidan yurishga darmoni yo‘qligini sezibdi.

“Ertalab uydan olib kelgan ovqatlarimni yeb olay”, - deb daraxt oldiga qo‘yan to‘rvachasiga qo‘lini cho‘zibdi. O‘ktam nonni tishlab ko‘rsa, qattiq emish. Non ham tilla bo‘lib qolgan ekan.

To‘rvachada olma ham bor ekan. O‘ktam shosha-pisha olmani olsa, u ham tillaga aylanib qolibdi. Buni ko‘rgan O‘ktam hang-u mang bo‘lib qolibdi.

O‘ktam qo‘rqib ketibdi. Endi qanday qilib yeb-ichadi? Bu tillalar bilan qanday qilib yashaydi? Bu ahvolda ochlik va tashnalikda o‘lib ketadiku!

Nimaga qo‘lini tekkizsa, tillaga aylanib qolayotganini, azoblanib, ochlik va tashnalikda o‘lib ketishini ko‘z oldiga keltirgan O‘ktam shularni hayolidan o‘tkazibdi.

Shu payt u ko‘zlarini ochib, daraxt soyasida o‘tirganini ko‘ribdi-da, xomhayol qilganini anglabdi. Buni tush ekanligini bilgach, yelkasidan tog‘ ag‘darilganday bo‘libdi.

— Xudoga ming qatla shukur-a, bularning bari yomon tush ekan! - debdi u.



U U

U U

u -
 u -


E E

E E

e -
 - e

ng ng

ng
 - ng



Y Y

Y Y

y -
 - y



g g

g g

- g
g -

ʒ ʒ


ʒ ʒ

- s
s -



WHAT THEY SAID?

It's four o'clock,
Said the cock.
It's still dark
Said the lark
What's that?
Said the cat.
I want to sleep,
Said the sheep
A bad habit,
Said the rabbit
Of course,
Said the horse
But where?
Said the sparrow
In the house
Said the mouse
I'm too big,
Said the pig
But the dog said bow-wow,
It's too late now.



"ERKATOY"GA OMAD YOR BO'LSIN!

*Bolalarga quvonchlar, ularshadi "Erkatoj".
Yurtga buyuk zafarlar, tilashadi "Erkatoj".
Baxtimizga doimo, bor bo'lsin-ey "Erkatoj".
Unga ulkan omadlar, yor bo'lsin-ey "Erkatoj"!*



Assalomu aleykum hurmatli "Erkatoj" jurnalining xodimlari! Biz o'qituvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilari "Erkatoj" jurnalining har bir sonini katta qiziqish bilan kutamiz. Jurnal sahifalarida beriladigan ertaklar, o'yinlar, she'r va qo'shiqlardan darslarimiz davomida foydalanamiz. Jurnalning har bir yangi sonini talashib-tortishib o'qishga shoshilayotgan bolajonlarni ko'rib, qalblarimiz zavqqa to'ladi.

"Bilimlar kuni"da "Erkatoj" jurnali tomonidan menga berilgan sovg'a hayotimda unutilmas voqeа bo'ldi. Buning uchun barchangizga minnatdorchilikimni bildiraman. Jajji bolajonlarga quvonch, shodlik ularshishday mashaqqatli va sharaflı ishlaringizda omad tilayman. Biz, sevimli jurnalimizga obuna bo'ldik va undan yangi sahifalar kutib qolamiz.

"Bolajonim - chaman bog'im" tanlovining g'olibasi:

Nafisa Narzullayeva.
*Buxoro viloyati Romitan tumani,
30-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*



JAJJI QALBIM ORZUSI

Yurtimizda shahmat bo'yicha o'tkazilgan Respublika birinchiligidagi sovrinli II-o'rinni, "Navro'z" bayrami munosabati bilan o'tkazilgan shahar birinchiligidagi II-o'rinni egallagan tengdoshingiz Kamolaxon Dadabayeva bilan yaqindan tanishamiz.



Men Dadabayeva Kamolaxon 2002-yil 3-martda Toshkent shahrida tug'ilganman. Bolaligimdan raqsga juda qiziqaman, shu sababli 4 yoshimdan boshlab Ziyoda Madraximova rahbarligida tashkil etilgan "Qizaloq" raqs ansambliga borganman. Olti yoshimdan o'n yoshimgacha Shermat Yormatov rahbarligida tashkil qilingan "Bulbulcha" ashula va raqs ansambliga raqs sirlarini mukammal o'rganish maqsadida qatnashganman. Respublikamizda katta tantana bilan nishonlanadigan "Mustaqillik" hamda "Navro'z" bayramlarida jozibali raqlar ijro qilganman. Maktabda matematika faniga qiziqishim meni sportning shaxmat turini o'rganishimga turtki bo'ldi.

Bo'sh vaqtlarimda oyijonimga uy ishlarida yordamlashaman. Kitob o'qishni yoqtiraman. Ertaklar, badiiy kitoblarni sevib o'qiyman. Ayniqsa masalali, boshqotirmalikitoblar jonu dilim.

Hozirgi kunda men Sirg'ali tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 6-D sinfida a'lo boholarga o'qiyapman. Mening kelajakdagidan orzularimdan biri Nafisa Mo'minovaga o'xshagan qizlar ichida shahmat bo'yicha dunyodagi eng kuchli grasmeystr bo'lish. Bundan tashqari huquqshunos bo'lish niyatim ham bor.

SHIRIN SO'Z - JON OZIG'I, YOMON SO'Z - BOSH QOZIG'I

Yomon so'zlab har kimni kamsitgan, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib, bezorilik qilgan odamni hech kim yoqtirmaydi. Yo'lda ketayotgan odamga qo'pol so'zlar aytib uni kamsitish, masxara qilish eng yaramas odatlardan biri sanaladi. Birovning ustidan kulish, har kimga achchiq so'zlar aytib, u bilan qo'pol muomala qilish odob-axloqli, tarbiyali bolaning ishi emas.

Sevimli bolalarim, sira ham qo'pol so'zli, achchiq tilli bo'lmang, tilingizni qo'pol, yomon so'zlardan tiying. Ochiq yuzli, shirin so'zli bo'ling. Tilingizni doim yaxshi so'zlashga ko'niktiring. Hech kimning ko'nglini yomon so'zlar aytib og'ritmang. Bobolarimiz "Yaxshi so'z-jon ozig'i, yomon so'z - bosh qozig'i" deb bekorga aytmaganlar. Quvnoq, shirin so'z bo'lsangiz hamma sizlarni sevadi. "Bu bolalar qanday yaxshi, odobli, tarbiyali bolalar, bularni shunday tarbiya qilgan ota-onva muallimlariga ming rahmat" deb, hamma sizlarni duo qiladi.



Tilni bilish - dilni bilishga qo'l ochar

Dorining achchig'i yaxshi,
So'zning — shirini.

Ovqatni tuz mazali qilar,
Odamni — so'z.

Yomon so'zlab Sovutma,
Jon og'ritib ovutma.

Oz gapir — soz gapir.

Yaxshi so'zdan moy eriydi,
Yomon so'zdan soy quriydi.

Yaxshi so'z suyuntirar,
Yomon so'z kuyuntirar.

Achchiq so'z — bo'yinga arqon.
Shirin so'z — qaymoqli ayron,





Munavvarxon Fayzullaxo'jayeva.
Farg'on'a vil. Beshariq sh.




Kolixson Umarova.
Yashnobod tumani, 244-maktab
6-A sinf o'quvchisi.



Behzod Turdiyev.
Toshkent sh. 244-maktab
2-A sinf o'quvchisi.



Asadbek Zuxriddinov.
Sirg'ali tumani, 6-maktab
2-M sinf o'quvchisi.



Ibrohim Abdumajidov.
Uchtepa tumani, 287-maktab
4-sinf o'quvchisi.



Zuyodullabek Ziyodullayev.
Buxoro vil., Romitan tumani,
30-maktab, 5-A sinf o'quvchisi.



“T” harflisi taomli,
“Q” harflisi – polizda!
“Ch” harflisi suzgancha
Charx uradi dengizda!

(Tovoy, Qovoy, Chovoy)

“N” harflisi poyali,
“K” harflisi tuyali!
“S” harflisi so‘raydi,
U bo‘lmasa o‘radi.

(So‘roy, O‘roy)

“S” harflisi suruvga bosh,
“E” harflisi esa bebosh!

(Serka, Erka)



Bo‘lganda qirq o‘rimli,
Qizni qilar ko‘rimli!
(Sosch)



Oltindan a‘lo, derlar,
Olsang yo‘q balo, derlar.
(Duo)

“Bir bor ekan”dir boshi,
Bor uning “Yoriltosh”i!
(Ertaq)

Yuzi qora bo‘lsa ham
Darsda kerakdir har dam!
(Yozuv taxtasi)



“Ko‘k” bo‘lar yoki “qora”
Chanqasang jonga oro!
(choy)



*Shaxnoza To'raqulova.
Toshkent sh., Yashnobod
tumani, 244-maktab
5-A sinf o'quvchisi.*




ERKATOY

Erkatoyim, erkatoy,
Ra'no guldek top chiroy.
Kamol topib, tun-u kun,
Ardoqli bo'l, misli oy.

Topolmasak biz seni,
Ojizadek bo'lamiz.
"Yilt" etganing bilsak gar,
Imlab, chopib topamiz.
Mening jonim - Erkatoy!

*Dilsora Sobirova.
Buxoro viloyati,
Kogon tumani.*



MOMAQALDIROQ

Barcha shovqin-suroning,
Darrov o'tib ketadi.
Kuching faqat bulutni,
Yig'latishga yetadi.

O'rdakchalar va jo'jachalar
daryoning bu qirg'og'idan narigi
qirg'og'iga suzib o'tishmoqchi.
Birinchi bo'lib ularning qaysi
biri narigi qirg'oqqa suzib
boradi?


TO'QQIZVOY

To'qqiz tog'dan dumalab,
Pastlikka yo'l oldi u.
Oyog'ida turolmay,
Olti bo'lib qoldi u...



Stolning bitta
burchagi kesib olib
tashlansa, nechta
burchagi qoladi?

Stol ustida to'rtta sabzi,
uchta bodring, bitta karam
va yana ikkita kartoshka
bor. Stol ustida nechta
meva bor?



Здравствуй друг!

СТИХ (песенка)

Шалтай – Болтай
Шалтай – Болтай
Сидел на стене.
Шалтай – Болтай
Свалился во сне
Вся королевская конница,
Вся королевская рать
Не может
Шалтая,
Не может
Болтая,
Шалтай – Болтай,
Болтая – Шалтая,
Шалтай – Болтай.

ЗАГАДКИ


Хоть он на миг не покидал
Тебя со дня рождения,
Его лица ты не видел,
А только отражения.

(нэ юш)

Держусь я только на ходу,
А если стану, упаду

(оэинкоуээ)

Анвар увидел на
дереве дупло.
- Там белка, -
сказал садовник.



Кто быстрее?

Прочитай скороговорку и
повтори её как можно быстрее.

Ела белка булку, ел баран баранку.





"Kutilmagan sovg'a"

tanlovining oktabr oyi g'oliblari
bilan tanishing:

1. Munavvarxon Fayzullaxo'jayeva
Farg'onha viloyati, Beshariq shahri,
Obod ko'chasi 105-uy.

2. Shaxrizoda Jumayeva
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
4-maktab o'quvchisi.

3. Ziyodullayev Ziyodullabek
Buxoro viloyati, Romitan tumani,
30-maktab 5-A sinf o'quvchisi.

*Aziz bolajonlar! Siz ham tahririyatga
maktub yozing va tanlovda ishtirok
eting. Tanlovda albatta g'olib bo'lib,
"kutilmagan sovg'a" egasiga aylana-
siz. Maktubda manzilingiz va maktab
raqamingiz aniq ko'rsatilgan bo'lsin.*

G'oliblarga "Kutilmagan sovg'a"
pochta orqali jo'natiladi. Sovg'amiz
sizga yoqadi, deb o'ylaymiz.

Bo'sh o'tirma
Rasmda qanday jonivor tasvirlangan?
Uni bo'yang va bilib oling.




DIQQAT, DIQQAT!


"Erkatoj" jurnalining aziz muxlislari, qadrli obunachilar! Agar siz jurnalga obuna bo'lgan bo'lsangiz, ammo o'z vaqtida yetkazib bermayotgan bo'lishsa quyidagi ishonch telefoniga albatta qo'ng'iroq qiling.

+99 890 119-27-87

Ushbu shakllarning joylashuvini eslab qoling va ustini qog'oz bilan berkitib, bo'sh jadvalga joylashtiring.



Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.



Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ma'nnaviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:

"Matbuot info media servis" MChJ

Bosh muharrir,
loyiha muallifi:
Nodir YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:

Iqbol MIRZO (hay'at raisi)
Shermat YORMATOV
Bahodir SHAROFOV
Vohid LUQMON
Orif TO'XTASH
Nodir JONUZOQ

Mas'ul kotib:
Durdona AZIZOVA

Rassomlar:
Najot JO'RABOYEV
Aziz JABBOROV

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

Tahririyat manzili:
100011. Toshkent shahri,
A.Navoiy ko'chasi, 16-th uy,
415-xona. Tel: 8(590) 119-27-87;

"Sano Standart" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani
Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -
Bichimi - 70/100 1/16
Nusxasi - 7000

Jurnal "Erkatoj" tahririyyati kompyuterlarda
sahifalandi. Sahifalovchi:

Anvarjon MIRZAALIYEV

Jurnal qahramonlari surʼatlardan foydalanan
tahririyyat nusxasi bilan amalga oshinildi.



↑ Rasmlardagi 10 ta
farqni toping



OBUNA-2015

ERKATOY

SCALLYWAG



O'ZBEKCHA

OBUNA INDEksi:

882

ENGLISH

OBUNA INDEksi:

967

Ma'lumot uchun telefon: +998 90 119-27-87; Guvohnoma: 0832